

TERMITLARNING BIOEKOLOGIYASI

Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi

Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi

tuychiyevafdu1993@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada termitlarning bioekologiyasi, tarqalishi, oziqlanishi va zararli xususiyatlari haqida maʼlumotlar berilgan. Termitlar mayda yoki oʻrta oʻlchamli, odatda yorugʻlikdan oʻzini olib qochadigan va yerda, yogʻoch taxta va kartonsimon materiallarda uya qurib oila hosil qilib yashovchi hasharotlardir. Odatda termitlar zararlilik xususiyati bilan ajralib turadi.

***Kalit soʻzlar:** termit, oziqa rejimi, ksilofag, parmaloqchilar, zararkunanda, sariq boʻyin termit, polimorfizm, areal, turkiston termiti, gigroskopik.*

Hasharotlarning oziqa rejimining almashuvi ular xulq atvorining, oziqa qabul qilish usuli va ogʻiz apparatining modifikatsiyalanishi hamda oziqa xazm qilish jarayonlarining oʻzgarishi bilan yuzaga keladi. Shubxasiz bunday oʻzgarishlar uzoq evolyutsion jarayonlar bilan bogʻliq.

Hasharotlarning xulqi xarakterlarining abiotik muxitlarga barqarorligi sharoitga qarab ular materiallarga duch kelganda ozmi koʻpmi sezilarli maʼlum darajada oʻzgartiriladi. Tabiatda yogʻochtaxta bilan aloqador boʻlgan 20 turkumlarga xos hasharot vakillari mavjud.

Ular orasida faqat qattiqqanotlilar va ikkiqanotlilarning har biridan 60 tadan oila turlari zararkunanda sifatida taqsimlangan. Ammo ularning barchasi ksilobiontlar ham boʻlmasdan, ksilofaglar hisoblanadi. Oxirgisi oʻz navbatida maʼlum bir stadiyalarda taxta bilan oziqlanadigan yemiruvchi komplekslarga ajratiladilar.

Taxta konstruksiyalari va buyumlarida ko'pchilik ksilofaglar uchun noqulay sharoit tug'iladi, jumladan qo'ng'izlar, faqat ularning bir qismigina nihoyatda kamsu vli oziqalarni iste'mol qiladi. Tuproq bilan bog'lanmagan, doimiy gigroskopik namlik darajasidan past bo'lgan taxta konstruksiyasi va buyumlarida faqat bir qancha guruh qo'ng'izlarigina: ayrim mo'ylovdor qo'ng'izlar, parmalovchilar, yog'och-taxta kemiruvchilar mo'ynali turlarigina rivojlana oladi.

Termitlar(Isoptera) mayda yoki o'rta o'lchamli, odat yorug'likdan o'zini olib qochadigan va yerda, yog'och yoki kartonsimon materiallardan uya qurib, oila hosil qilib yashovchi hasharotlardir. Boshqa jamoa hosil qilib yashovchi hasharotlar singari, uyadagi jamoa to'dasi bir xil emas. Ammo jamoa hosil qilib yashovchi pardasimon qanotlilardan polimorfizmidan, termitlar chala o'zgarish hisobiga rivojlanadilar va nafaqat to'liq rivojlangan imagolik shaklida, balki jinsiy voyaga yetmagan individlari ham faollik ko'rsatadilar. Quyida termitlarning turlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Katta kaspiy orti termiti (*Anacanthatermes ahngerianus* Jacobs), turkiston termiti tarqalgan xududlarda ham uchrab shimoliyg'arbdan kirib borib undan ham narida uchraydi. Arealning sharqiy qismida uchrab o'z o'rnini turkiston termitiga bo'shatib beradi. Uning katta tig'iz uyalari qurigan o'simliklarga boy bo'lgan tuproqli tekislik-

larda uchraydi. Katta kaspiy orti termiti turli xil sho'radoshlar (*Salsoleta* Sp.Sp.) bilan siyrak qoplangan taqirsimon tuproqli tekistliklardan hamda shuvoqlar (*Artimesia turanicae*) yantoqzor (*Alhogieta rersarium*), yulg'unzor(*Tamariceta* Sp.Sp), saksavulzor (*Haloxyleta persici*), (*Haloxyleta aphylli*), cherkez (*Salsoleta richterii*), astragal (*Astragaleta* Sp.Sp) va ferula (*Feryleta* Sp.Sp) singari o'simliklar o'sadigan pastbalandliklardan iborat qumliklarda ham uchraydi.

Oliy termitlarning *Amitermes rhizofagus* Bel. va *Microcerotermes turkmenicus* Lupp. turlari Turkmaniston Respublikasi xududlarida kamdankam (siyrak) uchrab, katta miqdoriy songa erishmaydilar, shu munosabat bilan garchand bu turlar qurilishlarni yog'och elementlari bilan oziqlansalarda, ammo sezilarli zarar yetkazmaydilar.

Sariq bo'yin termit (*Kalotermes flavicollis* Fabr) Kavkaz Qora dengiz sohilida uchrab qurigan daraxt yog'ochini chiritishda va o'rmonda sanitar vazifasini bajaruvchi kamsonli tur hisoblanadi. Ammo keyingi yillarda kurort xududlarida bog'-park daraxtlarining zararkunandasi sifatida qayd etilgan. Yorumlikdan qo'rquvchi termit (*Reticulitermes lucifugus* Rossi) Ukrainaning janubi, Ozerbayjon va Armeniyada eski daraxt to'ng'alari, quriyotgan daraxtlar, yarim butalar, butachalar va ko'p yillik o'simliklarning asoslariga uya quradi. Tuproqdagi yashash kameralarining chuqurligi 50 sm oshmaydi. Ko'pchilik termitlar-ksilofaglardirlar. Ular yog'och bilan oziqlanishida va oziqaning hazm bo'lishida zamburug'lar, bakteriyalar va ixtisoslashgan soda hayvonlar ishtirok etadilar.

Zamburug'lar ko'pchilik termitlar uchun muhim oziqa komponenti hisoblanadi. Bundan tashqari yog'ochda qo'ng'ir chirishni keltirib chiqaradigan ko'pchilik bazidio-mitsetlar, yog'ochning kimyoviy tarkibini o'zgartirib, termitlar klechatka va ligninni o'zlashtirishlarini bir muncha yengillashtiradilar. Bunday yog'ochlar bilan termitlar bir muncha yoqtirib oziqlanadilar va bunda ular yaxshi rivojlanadilar.

Xulosa qilib aytganda termitlar hasharotlar olamida oziqlanishi, zararlilik darajasi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Biozararlanish asoslari: Oliy o'quv yurtlar biologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. A.Ш.Хамраев, Б.А.Хасанов, З.И.Иззатулаев ва б.қ.: А.Ш.Хамраев тахрири остида.-Тошкент:-2008 й.

2. Normatov A., qizi Tuychiyeva X. Z. SHIRALARNING YASHASH TARZINING XILMA-XILLIGI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 11. – С. 278-281.

3. qizi Tuychiyeva X. Z. FARG'ONA VODIYSI SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXTLAR BIOEKOLOGIYASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 147-150.

4. Normatov, A., & qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). SHIRALARNING YASHASH TARZINING XILMA-XILLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 278-281.
5. Tuychiyeva, X. (2023). YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(8).
6. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). O 'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 33-39.
7. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023, January). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. In *international conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 378-380).
8. Abdurahim, N. (2023). The Technology of Growing Sophora Japonica L. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 128-133.
9. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). FARG 'ONA VODIYSI SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXTLAR BIOEKOLOGIYASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 147-150.
10. qizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2023). ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA'SIRI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 296-273.